JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH SAMARADORLIGIGA RAQAMLI INFRASTRUKTURANING TA'SIRI

Maxmutaliyev Adxamjon
Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Dolzarbligi: Dunyo miqiyosida jadal rivojlanib borayotgan jamiyat, jahon bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish jarayonida to'xtovsiz takomillashib borishni taqozo etadi. Ayni damda takomillashishning usullari bo'lib, raqamli texnologiyalar hisoblanmoqda. Raqamli texnologiyalar tadbiq etilayotgan yo'nalishlar qatorida oliy ta'lim muassasalari ham asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2025 y. PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida oliy ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, shuningdek, ta'lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadining qo'yilishi, oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlarida raqamli texnologiyalarning tadbiq etilishi o'ta dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tekshiruvdan maqsad: Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligiga raqamli infratuzilmaning ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda samarador usullarni amaliyotga tadbiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tekshiruv materiallari va usullari: - Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligiga raqamli infratuzilmaning ta'sir mexanizmlarini aniqlashga doir jahon miqiyosidagi adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish o'tkazildi

- Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida tahsil olayotgan Sirtqi bo'lim talabalari o'rtasida fanlarni o'zlashtirishlari jarayonida raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni bo'yicha so'rov-anketa usuli olib borildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi: Jamiyatda Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad kishilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirishdan iboratdir. Sog'lom turmush tarzi bu - inson hayot tarzi bo'lib, bunda kishi o'zining va atrofdagilarning sog'ligini saqlash, mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish bilan bog'liq tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Sog'lom turmush tarziga amal qilish uchun inson - yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, qattiyatli, irodali bo'lmog'i lozim. Sog'lom turmush tarzi afzalliklari – bu birinchi navbatda inson sog'lig'ini mustahkamlanishi, mehnat qobiliyatining yaxshilanishi, umr ko'rishining uzayishi bilan ta'riflanadi [1].

Jumladan, jamiyat rivojlanib borar ekan, uning asosini ta'lim – tarbiya tashkil etadi. Ta'lim – tarbiyani barcha jabhalarini takomillashtirish ayni vaqtdagi vositalaridan asosiysi bu Raqamli texnologiyalar hisoblanmoqda.

Raqamli texnologiyalar (RT) jismoniy tarbiyaning barcha bosqichlarida (a) aqlli o'quv dasturini loyihalash, (b) jarayonni real vaqtda vizualizatsiya qilish va (c) ma'lumotlarga asoslangan baholash va fikr-mulohazalarni o'z ichiga olgan yopiq tizimni shakllantirmoqda. Asosiy yangiliklarga adaptiv ta'lim platformalari, virtual modellashtirish vositalari, multimodal baholash tizimlari va sog'liqni saqlash xatti-harakatlarini kuzatish kiradi [4].

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning asosini tashkil yetuvchi texnik va dasturiy vositalar doimiy ravishda murakkablashib bormoqda, yangi ma'lumotlar formatlari paydo bo'lmoqda, shuning uchun ulardan o'quv jarayonida foydalanish talabalar va o'qituvchilarning dasturiy ilovalar haqidagi bilimlarini kengaytirishni, shuningdek, ularning malakasini oshirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi universitetning o'quv muhitida talabalarni jismoniy tarbiyalashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash [5]. boshqa mualliflar tomonidan ham o'rganilib kelinmoqda.

O'quv jarayonida masofaviy ish shakllaridan samarali foydalanish muammosi yangi yemas. Internet va xususan, ijtimoiy tarmoqlar tarqalishi bilan uni ko'rib chiqish faolligi oshdi.

Oliy o‘quv yurtlari ko‘pincha universitet veb-saytidan yoki uchinchi tomon manbalaridan (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardan) ta’lim platformasi sifatida foydalanib, turli darajadagi muvaffaqiyatlar bilan masofaviy o‘qitishni tashkil yetishga harakat qilishgan [2].

Umuman olganda, COVID-19 pandemiyasi masofaviy formatni ixtiyoriy formatdan zarur formatga aylantirmasdan oldin ham aytish mumkin ko‘rib chiqilayotgan mavzu allaqachon turli jihatlarda, shu jumladan dissertatsiya tadqiqotlarida juda keng o‘rganilgan yedi [3].

Biroq, amaldagi tajriba va kuzatuvlarimiz, favqulotda vaziyatlarsiz sharoitda Jismoniy tarbiya va sport dasturlarini o‘qitish jarayoniga tadbiq etilayotgan raqamli texnologiyalar takomillashib borsada, uning masofaviy o‘qitish kabi formatlari faqat an’anaviy o‘qitishning majburiy almashtirish shakli bo‘lishi mumkin. Ammo shunday jihatlarni ham e’tibordan qochirmaslik zarurki, ya’ni ta’lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yangi muammolar yuzaga kelganda ularni operativ bartaraf etish ko‘nikmalari shakillanib olinadi.

Talabalar orasida olib borilgan so‘rov-anketa usuli natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, ularning fanni o‘rganishlari uchun hozirda mavjud bo‘lgan raqamli infratuzilmalar ichida eng qulay variantlari telefon, smartfon, planshet, noutbuk vositalari deb hisoblashmoqda. Sababi talabalar istalgan vaqtda, istalgan joyda va ushbu qurilmalardan foydalanib bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olishlari ta’kidlangan. Mobil ilovalar ichida esa Sworkit Kids, Google Fit/Samsung Healthlar eng ko‘p tanlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, yuqorida o‘rganilgan adabiyotlar tahlili va olib borilgan kuzatuvlar, erishilgan pedogogik tajribalar hamda talabalar o‘rtasida olib borilgan anketa so‘rov ma’lumotlari, jahon bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish tendentsiyasining o‘sishi, maxsus raqamli infratuzilma va ilovalarni ham nazariy ham amaliy ta’lim jarayonlariga tadbiq etilishi zarurat ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Abdukadirova L.K., Muxidinova Sh.B. Toshkent tibbiyot akademiyasi. Atrof muhit gigienasi kafedrasi dotsenti, Farg‘ona jamoat salomatligi instituti. Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar kafedrasi katta o‘qituvchisi. “Keksa insonlar organizmida ruhiy va fiziologik siljishlarning kelib chiqish sabablarini o‘rganib taxlil qilish”.

2. А.М. Кузьмин, М.Ф. Шарипов, С.В. Бренч, В.К. Миловидов [Bulletin of TulSU. Physical culture. Sport. 2021. Issue 7] УДК 796.011.3 10.24412/2305-8404-2021-7-10-17 Дистанционные формы образования со студентами вуза физической культуры: проблемы и перспективы.

3. Э.В. Самойленко, 2004, М.А. Евдокимов, 2006, О.М. Горева, 2008, И.В. Холодкова, 2009, Р.Р. Насибуллов, 2010 и др.

4. Циин Чжун [1], Цзяцзюнь Цзян [1], Вэньтинг Бай [2, *], Чжихуа Инь [1, *], Цзыюань Ляо [3], Сяохуэй Чжун [4]. (Frontiers in Public Health. Применение цифровых интеллектуальных технологий в физическом воспитании: систематический обзор. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12328460/).